

ME'MORCHILIK

VA QURILISH



MUAMMOLARI

ISSN: 2091-5004

ILMIY TEXNIK JURNAL

27.04.2023

№ MAHSUS SON

PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

(Scientific and technical journal) 27.04.2023 № SPECIAL ISSUE

ПРОБЛЕМЫ АРХИТЕКТУРЫ И СТРОИТЕЛЬСТВА

(научно-технический журнал) 27.04.2023 № СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК

Jurnal OAK Hay'atining qaroriga binoan texnika (qurilish, mexanika va mashinasozlik sohalari) fanlari hamda me'morchilik bo'yicha ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan (guvohnoma №00757. 2000.31.01)

Jurnalimizdagi ingliz tilida chop etilgan maqolalar OAK Rayosatining 2020 yil 30 iyuldagi 283/7.1-son qaroriga asosan xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga tenglashtirilganini ma'lum qiladi.

2023



Google Scholar provides a simple way to broadly search for scholarly literature.



Any status is accepted, from any stage of the research lifecycle



Wikipedia is a free online encyclopedia created by volunteers around the world



Open Journal Systems (OJS) is an open source solution to managing and publishing scholarly journals online.



International Standard Serial Number International centre



SAMARQAND VILOYATI KO'CHALARI VA AVTOMOBIL YO'LLARINI ZAMONAVIY KO'KALAMZORLASHTIRISH

Beknazarov M.B., katta o'qituvchi, SamDAQU,

Boynazarov M.M. 102 "ShQ hamda KITE va B" talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati hududidagi ko'cha va avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish, ularni obodonlashtirish hamda ularda olib boriladigan ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ko'kalamzorlashtirish loyihasi tuzilganda avtomobillarning hisoblangan harakatini e'tiborga olish kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: avtomobil yo'llari, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, avtomobillar harakati, manzara beruvchi yoki ajralib turuvchi daraxtlar.

Modern landscaping of streets and highways of Samarkand region

Abstract: This article provides information about the greening of streets and highways in the territory of the Samarkand region, their improvement and the work carried out on them. The article also noted that the calculated movement of cars should be taken into account when creating a greening project.

Keywords: highways, landscaping, landscaping, traffic, landscaping or stand-alone trees.

Avtomobil yo'llarining arxitektura-badiiy tuzilishi darajasini tubdan oshirish, respublikaning ko'cha va avtomobil yo'llari bo'ylab ko'cha va yo'l chekkalari polosalariga yashil nav-nihollar o'tkazish va ularni obodonlashtirishga yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha zamonaviy talablar bilan chambarchas bog'liq holda yagona tizimli va kompleks yondoshuvni shakllantirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Avtomobil yo'llarining arxitektura-lanshaft qurilishi va ko'kalamzorlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3262-son 2017-yilning 11-sentyabr kuni qarori imzolangan edi.

Ushbu qarorda avtomobil magistrallarini ko'kalamzorlashtirish: yo'lning har ikkala tomoniga ekiladigan himoya va manzarali ekinzorlar, yo'lning bo'lish chizig'ini (1 toifali yo'llarda) ko'kalamzorlashtirish, chorrahalarini, avtobus bekatlarini, yo'lovchi va haydovchilarning uzoqroq dam olishga mo'ljallangan joylarini ko'kalamzorlashtirish sifatini tubdan oshirish masalalari ko'zda tutilgan.

Qarorning ijrosi yuzasidan, ko'cha va avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining 2017-yil 12-sentyabrdagi buyrug'iga asosan "O'zyo'lko'kalamzorlashtirish" unitar korxonasi va uning barcha viloyatlardagi hududiy "Yo'lko'kalam" unitar korxonalari

tashkil etildi. Tashkil topganiga uncha ko'p bo'lmagan mazkur korxonalar tomonidan hozirga qadar ancha samarali ishlar yo'lga qo'yildi.



1-rasm.

Tarmoqlarda umumiy ko'rish qobiliyati xususiyatiga ko'ra borliqning o'lchamini ham ko'rsatadi. Inson borliq teranligini ko'rganda albatta nigohi tushgan jismlar o'rtasidagi masofani ham chamalaydi. Shundan kelib chiqib fikr qiladigan bo'lsak, borliq teranligini to'g'ri baholash uchun masofani nigoh bilan chamalashga asos bo'ladigan nuqtalar kerak. Buning uchun borliq teran idrok qilishga imkon beradigan qismlarga bo'linadi, yo'ldagi nigoh tushadigan, masofani chamalash harakat xavfzligi uchun ahamiyatli bo'lgan joylarga har bir tarmoqningtoifasiga rioya qilgan holda ya'ni



ShNQning talablari asosida ko'kalamzorlashtirish uchun guruh qilib ekinlar ekiladi, yo'l belgilari va ko'rsatgichlar qo'yiladi.

1-rasm. Davlat ahamiyatidagi 4p-58e "Ziyovuddin shahriga kirish a/y 0-1 km.


Ko'cha va yo'llarni ko'kalamzorlashtirish loyihasi tuzilganda avtomobillarning hisoblangan harakatini e'tiborga olish kerak. Tezlik qancha katta bo'lsa alohida yoki to'p qilib daraxt ekishning o'rniga katta daraxtzorlar qilish to'g'ri bo'ladi. Shunda daraxtlar ko'z oldidan lipillab o'tmaydi, ko'cha va yo'l chetini saqlash uengil bo'ladi. Uzun, bir xil ekinning o'rniga poyali o'simliklarni guruh qilib ekish to'g'ri bo'ladi. Mayda daraxtlar guruhiga qo'shimcha daraxtlar ekilishi, qalin butalarni esa siyraklashtirib, ko'cha va yo'ldan manzara yoki imoratlar ko'rinadigan qilish mumkin, xunuk ko'rinishni berkitish uchun daraxt ekish, bezatish ishlarini bajarsa bo'ladi.

Ko'cha va yo'ldan ko'rinadigan manzara daraxtzor joylarining bir xilligini buzadigan dominantga aylanadi. Loyihalardagi bunday ishlar asoslangan bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan muhandislik psixologiyasidagi ma'lum bir qoidani e'tiborga olish kerak, ya'ni yangi signalni idrok qilish vaqti (cheklanmagan sharoitdagi reaksiya vaqti) 3 soniya bo'ladi, 4 soniya qaraganidan so'ng qarovchida betoqatlik alomatlari paydo bo'ladi. O'rtacha idrok qilish vaqtini 3,5 soniya deb olsak, ekinzorlar, binolar uzilgan joyidagi oraliqni ko'rish 3,5 soniyadan oshmaydi deb hisoblaymiz. Shunda uzilgan joylarning chegaraviy (hisoblanadigan) uzunligi (metrda) qiymat jihatidan (kilometrdagi) $l_r = v_r$ harakat tezligiga teng bo'ladi.

Daraxtzor manzarasi bir xil bo'lganda, ko'cha va yo'l o'tkazish uchun daraxtzorlar tozalanganda, alohida daraxtlarni, daraxtlarni ko'tarilgan joylarini qoldirish kerak. Yaxshi ko'rinib turishi uchun daraxtlar ko'tarilgan joylari bilan ular orasidagi masofani hisobga olingan l_r qiymatdan kamaytirmaslik kerak.


Yo'naltiradigan daraxtlar harakat

yo'nalishi o'zgarishini bildiradi, uzoqdan haydovchiga burilishning egilish darajasini ko'rsatadi. Ular faqat tarmoqli, o'tish o'qiga parallel joylashgan, u yer poyidan chetda bo'lishi kerak. Ularning uzunligi burilish radiusiga bog'liq bo'ladi, ularning qatori esa egri chiziqqa yaqinlashish joyidan qaraganda harakat tasmasi butun kengligini berkitgandek bo'lishi kerak.



2-rasm. Rejadagi egrida yo'naltiruvchi daraxtlar; a – radiusi kichik egrilarda; b – kichik burchakli va burilish radiusi katta egrilarda.

To'siq daraxtlar haydovchiga shu yo'nalishda harakatni davom ettirish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi, nigohini "qaytaradi", nigohini kerakli tomonga qaratadi. Daraxtlar ham yo'naltirish qoidasiga amal qilib ekiladi: daraxtlar asosan chorrahalarda, avtobus bekatlarida, transport uechimlarida kerak bo'ladi, lekin dam olish maydonchalarida, harakat xizmati komplekslarida ham ishlatilishi mumkin.



3-rasm. Yollarni kesishish joylarida tosiqli ekinlarga misol:

a – chiqishga qarshi tomonda; b-o'tish – tezlanish tasmasi oxirida; v-bo'rtiq tik egrida
 Prezidentimiz qarorida 2018-yil uchun



respublika umumfoydalanish avtomobil yo'llari bo'ylaridagi chegara hududlariga 288 ming dona har xil turdagi manzarali, butasimon, igna bargli, baland va o'rta bo'yli daraxt ko'chatlari ekilishi belgilab qo'yilgan edi. 2022 yilning III-choragi davomida Samarqand viloyatidai mavjud umumfoydalanish avtomobil yo'llari chegarasiga tutash yo'l bo'yi hududlarida 70 km uzunlikda ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari olib borildi va 54 ming donaga yaqin nihollar ekildi.

Shuningdek, Bo'stonsaroy, Rudakiy, Sadridin Ayniy, Registon, Panjakent ko'chalarida ham to'liq asfalt yotqizilib, "Bahor gullari" MChJ ishchilari tomonidan yo'l yoqalariga anvoyi gullar ekildi.

Muhitga moslashmay, qurib qolgan daraxt ko'chatlari yangilanmoqda. Namangan shahridan keltirilgan 20 ming tupdan ziyod gul ko'chatlari Universitet xiyoboni, Registon maydoni, Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i atrofiga ekildi.

- Shaharning So'zangaron, Gulobod, Mirzo Ulug'bek ko'chalarida, shuningdek, Spitamen shohko'chasi, Shohi Zinda ko'chalariga asfalt yotqizish ishlari yakunlandi.

- Shahar bo'yab 180 kilometr piyodalar va velosiped yo'lakchalari qurilib va qariyb 3 ming donaga yaqin tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi.

Shuningdek, yangi loyiha asosida qurilgan Usta Umar Jo'raqulov ko'chasi orqali uzunligi 670 pogonometr zamonaviy monolit temirbeton yo'l o'tkazgich, Imom Buxoriy majmuasiga olib boruvchi avtomobil yo'lidan kesib o'tuvchi Oqdaryo daryosi ustidan o'tuvchi uzunligi 130 pogonometr bo'lgan yangi ko'prikinshootlari qurilib atrofi ko'kalamzorlashtirildi.

Respublika umumfoydalanish avtomobil yo'llari xududini ko'kalamzorlashtirish maqsadida O'zbekistonlik bir guruh ko'kalamzorlash-tirish bo'yicha mutaxassislar Turkiya Respublikasida bo'lib, soha bo'yicha

ushbu mamlakatda yo'lga qo'yilgan tajriba bilan bevosita tanishdilar. O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tarkibidagi "O'zyo'lko'kalamzorlashtirish" unitar korxonasi va Turkiyaning "Arifiye Fidanchilik" kompaniyasi o'rtasidagi anglashuv memorandumini - Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyib Erdo'g'onning O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi doirasida imzolangan edi. Mazkur hujjat ikki tomonlama amaliy hamkorlikning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonlik mutaxassislar Turkiyaning Sakarya viloyatidagi safar davomida u yerdagi hamkasblari bilan ko'kalamzorlashtirish, yo'l bo'ylariga dekorativ va manzarali ko'chatlar o'tqazish va ularni yetishtirish borasidagi tajriba almashdilar. Shuningdek, ekinlarni sug'orish tizimi va sharoitlari, ko'chatlarga ishlov va shakl berish, o'simliklarni parvarish qilishda amaliyotda qo'llanadigan texnikalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шукуров И.С. Инновационные технологии устройства городских инженерных сетей. Учебник для вузов.- М.: Издательство с, 2014.
2. Шукуров, И. С., Пайкан, В., & Бекназаров, М. (2018). Ветровой режим жилой застройки котловинного рельефа г. Кабула. БСТ: Бюллетень строительной техники, 56-58.
3. ShNQ 2.07.01-03* "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish" / O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qumitasi – Toshkent, 2009.
4. Проектирование пешеходных и велосипедных дорожек Бекназаров М.В., Хайметова F.I., СамГАСИ.



	3-SHO‘BA. "SHAHAR TRANSPORTI VA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI"	
86.	<i>Мансуров Я.М., -</i> ФОРМИРОВАНИЯ МЕТРОУЗЛОВ И ТРЕБОВАНИЯ К ИХ ПРОЕКТИРОВАНИЮ	343-346
87.	<i>А.Т.Хотамов, М.А. Туронов -</i> ШАҲАРЛАРДАГИ ОЧИҚ АВТОМОБИЛЬ САҚЛАШ ЖОЙЛАРИДА АВТОМОБИЛЛАРНИ ЖОЙЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ ТАҲЛИЛИ	347-351
88.	Nazirov Baxtiyor O‘ktamjon o‘g‘li, Salimova Barno Djmalovna, - AVTOMOBIL YO‘LLARIDA BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLAR (THAY MISOLIDA)	352-355
89.	<i>О.К.Хушвақтов, А.Х.О‘роқов,</i> AVTOMOBIL YO‘LLARI QOPLAMASI RAVONLIGINI O‘LCHASH VA BAHOLASHNING MAVJUD USULLARI	356-360
90.	<i>Asatov Nurmuxammad Abdunazarovich, Kosimov Turaboy -</i> ZAMONAVIY SHAHAR AVTOMOBIL YULLARINI MAXSUS ANDOZA YORDAMIDA LOYIHALASHNING AMALIY YECHIMLARI (SAMARQAND SHAXRI MISOLIDA).	360-364
91.	<i>Turdibekov Yusuf Ibragimovich, Abdixoliqov Jamshid Abdixalil o‘g‘li,</i> SHAHAR JAMOAT AVTOTRANSPORTI XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	365-368
92.	<i>Beknazarov M.B., Boynazarov M.M,-</i> SAMARQAND VILOYATI KO‘CHALARI VA AVTOMOBIL YO‘LLARINI ZAMONAVIY KO‘KALAMZORLASHTIRISH	369-371
93.	<i>Quromboyev Suxrob Yo‘ldosh o‘g‘li, Ashurova Maxfuza Ikramboyevna</i> URGANCH SHAHRIDA AVTOMOBILLAR TO‘XTASH JOYLARINI TASHKIL QILISHNING DOLZARB MASALALARI	372-373
94.	<i>А.Х.О‘роқов. О.К.Хушвақтов, -</i> AVTOMOBIL YO‘LLARI QOPLAMASI RAVONLIGINI TRANSPORT OQIMINING HARAKAT TEZLIGIGA TA‘SIRINI TADQIQ QILISH.	374-377
95.	Mirzahidova Ozoda Mirabdullaevna- MONITORING AND DIAGNOSIS OF GROUND PATH AND SURFACE	378-381
96.	<i>Бузруков Закирё Саттиходжаевич, Д.Кодирова, Н.Худоёрва, Х.Каримжонов.</i> СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЯ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ В ГОРОДСКИХ УСЛОВИЯХ	382-386
97.	<i>Madiev Farrukh Muysinovich, Raximov Abduaziz teachers, Atabekova Dinara Nasim kizi, master, Abdugafforov Abdulaziz, -</i> EXPANSION AND DEVELOPMENT OF ROAD NETWORKS (FOR EXAMPLE, THE INTERSECTION OF M. ULUGBEK AND GAGARIN STREETS)	387-391
98.	<i>Худайбердиев Абъеркул, Хайдаров Шохбозжон Зухриддин угли Мухаммаджанов Фарход Фуркатович Мустафокулов Миркомил Рустам ўгли -</i> ВОПРОСЫ ОПТИМИЗАЦИИ ГОРОДСКИХ ПАССАЖИРСКИХ ПЕРЕВОЗОК	392-396
99.	<i>А.Т. Хотамов, Sh.A. Axmedov., S.B. Bo‘ronov-</i> TURAR JOY HUDUDIDA AVTOMOBIL TO‘XTASH JOYLARINI TASHKIL ETISH MASALALARI	397-400
100.	Jumaniyazov Xamdani Jumyozovich - AVTOMOBIL CHORAK QISMINI MSC-ADAMS VA MATLAB/SIMULINK DASTURLARI YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	401-404
101.	<i>F.A. Abdixalilov , E.Q. Xaytimbetov.-</i> SHAHAR KO‘CHA-YO‘LLARIDAGI AVTOTRANSPORT HARAKAT JADALLIGI VA TARKIBINI HISOBLASH	405-408